O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT VILOYATI
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-46, E-mail: vilekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Qambarov Giyosbek Sayfidinovich

Sana: 11-07-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

211656 - SONLI

Obyekt nomi: Академия профессор-ўқитувчилари ва ходимлари учун кўп хонадонли турар-жой сифатида қайта ихтисослаштириб реконструкция қилиш.	
Buyurtmachi:	NB TEXNOLOGIES MCHJ
Bosh loyihachi:	"ALI ARCHITECT GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	010412

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Loyiha topshirig’i, 2023 yilda buyurtmachi “NB TEXNOLOGIES” MChJ tomonidan tasdiqlangan va loyiha tashkiloti “ALI ARChITECT GROUP” MChJ tomonidan kelishilgan.

1.2. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan 2022-yil 19-avgustdagi 1726-1726269-48555 – sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.

1.3. “GEO-MASTER” MChJ tomonidan 2023-yilda bajarilgan, hududning muhandislik-geologik sharoitlari haqidagi xulosa.

1.4. O’zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan bajarilgan, 2024-yil 26-yanvardagi 01-11-582 – sonli elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar.

1.5. “Toshkent shahar suv ta`minoti” MChJ tomonidan bajarilgan 2024-yil 10-yanvardagi 270/4-54 – sonli ichimlik va oqova suv tarmoqlarini loyihalash uchun texnik shart.

1.6. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan bajarilgan 2024-yil 12-martdagi 057929 – sonli tabiiy gaz bilan gazlashtirishga texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiga ko’ra obyektining elektron shaklda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari va loyiha oldi hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining shartlari.

-Me`yoriy shamol tezligi bosimi – 0,38 kPa (38 kgk/m^2);

-Me`yoriy qor yuki – 0,50 kPa (50 kgk/m^2);

-Qurilish maydonchasining hisobiy seysmikligi – 9 ball;

-Tuproqning cho'kuvchanligiga ko'ra toifasi – II toifa;

-Tuproq muzlash qatlamining normativchuqurligi – 0,70 m;

3.2. Asosiy loyiha yechimlari.

Loyiha asosida Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi Gulbadanbegim ko'chasida 4 ta 7 qavatli turar-joy binosi, avtoturargoh binosi va ayvon qurish, hamda hududni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish nazarda tutilgan.

Hudud balansi:

Umumiy maydon – 0,253 ga;

Qurilish maydoni – 0,169 ga;

Qoplamalar maydoni – 0,059 ga;

Ko'kalamzorlashtirish maydoni – 0,025 ga.

3.3. Arxitektura-rejalashtirish yechimlari.

Ko'p qavatli turar-joy binosi

Loyihalashtirilgan ko'p qavatli turar-joy binosi 7 qavatli, 4 ta blok turar-joy binolari va 1 ta blokida yer osti avtoturargohdan iborat. Yer to'la qavatida avtoturargoh va 8-qavatda texnik qavati ham mavjud. Binoning o'qlardagi umumiy o'lchamlari 64,6x33,2 m, binoning umumiy balandligi yer sathidan 28,9-31,4 m.

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Binoning qurilish maydoni – 2184,0 m2;

Binoning umumiy maydoni – 11119,44 m2;

Binoning qurilish hajmi – 43679,54 m3.

Ichki va tashqi pardozlashda loyiha bo'yicha quyidagi ish hajmlari ko'zda tutilgan:

ichki pardozlash:

- devor – suv emulsiyali bo'yoq, keramik plitkalar;
- shift – suv emulsiyali bo'yoq, plastik;
- pol – beton, keramik plitkalar, laminat;
- deraza romlari – PVX profil;
- eshik – po'lat, PVX profil, yog'och (MDF) va boshqalar;

tashqi pardozlash:

- sokol va devor qism – dekorativ tosh "Travertin";

Bino perimetri bo'ylab eni 2,0 metr bo'lgan asfalt yo'lakcha amalga oshirilgan.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Ko'p qavatli turar-joy binosi.

Binoning konstruktiv sxemasi – bog'lamli va rama-bog'lamli monolit temirbeton karkas.

Poydevorlar osti asosi – zichlangan toza tuproq, qalinligi 2000 mm va beton to'shama, beton sinfi B7,5 qalinligi 100 mm.

Poydevor – monolit temirbeton plita, qalinligi 800 mm beton sinfi V20.

Devor – II toifali qolda terilgan g'isht devorlar.

Ustun – monolit temirbeton 400x400 mm va 500x500 mm, beton sinfi V25.

To'sin – monolit temirbeton 400x400(h) mm va 400x500(h) mm, beton sinfi V25.

Orayopma va tomyopma – yig'ma temirbeton g'ovakli plitalar va quyma temirbeton qismlar.

Tom – chordoqli, tashqi tashkillashtirilgan drenaj tizimi bilan.

Tom qoplamasi – yog’och konstruksiyalar asosida profnastil.

3.5. Yong’in xavfsizligi.

Evakuatsiya yo’laklar va zina maydonchalari bo’ylab. Evakuatsiya yo’llarida eshiklarni ochishlishi binodan chiqish yo’nalishi bo’yicha. Evakuatsiya yo’llarida ichki va tashqi pardozlash yonmaydigan materiallardan. Binoda yong’in daraklagichlari va favqulodda yoritish tizimi amalga oshirilgan. Tom izolyatsiya materiallari yonmaydigan materiallardan. Tom yo’goch konstruksiyalari yong’inga qarshi suyuqlik bilan ishlov berilishi lozim. Binoda ichki yong’inga qarshi suv ta’minoti va yer to’la qavatida avtomatik yong’inni o’chirish tizimi amalga oshirilgan.

3.6. Energiya samaradorlik yechimlari.

Tashqi devorlar basalt asosidagi mineral paxtali materiallar bilan qoplangan zichligi γ=120-125 kg/m3, qalinligi 80 mm (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi). Tom yopma penopleks qalinligi 100 mm va basalt asosidagi mineral paxtali materiallar bilan qoplangan zichligi γ=120-125 kg/m3, qalinligi 50 mm (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi). Deraza romlari issiqlik izolyasiyasi yuqori bo’lgan R0≥0,53(m2x°C)/Vt kamerali alyumin profillardan amalga oshirilgan.

Binoning elektr yoritilishi xonalarning maqsadi va muhitning xususiyatlariga muvofiq energiya tejamkor LED lampalar bilan amalga oshirilgan.

FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan.

Binoning tom qismida elektr energiya bilan qisman ta`minlash uchun 32 ta quyosh paneli (32 x 0,530 kVt= 16,96 kVt) hamda tarmoq invertori o’rnatilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Suv ta`minoti va oqova suv tizimi.

Binolarda suv ta’minoti va oqova suv tarmoqlari loyihalangan. Suv ta`minoti tarmog’i Ø110-90-75-63-25-20 mm polipropilen quvurlardan amalga oshirilgan.

Oqova suv tarmoqlari Ø150-100 mm polietilen quvurlardan o’zi oqar qilib loyihalangan.

4.2. Elektrotexnik yechimlari.

Loyihalashtirilgan obyekt elektr ta’minoti ishonchliligi bo’yicha II toifali iste’molchilarga tegishli bo’lib, yagona quvvat manbaidan elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. Tarmoq kuchlanishi 380/220V. Umumiy hisobiy kuchlanish Pp=489,1 kVt.

Elektr ta’minoti 0,4 kV VVGng markali kabellar orqali amalga oshiriladi.

Elektr energiyasini o’lchash ASKUE orqali amalga oshiriladi.

4.3. Isitish tizimi.

Xonadonlarning issiqlik manbai devoriy gaz qozonlar. Issiqlik manbai tashuvchisi 80-60°C parametrli issiq suvdir. Isitish tizimi gorizontal ikki quvurli qilib ishlab chiqilgan. Bimetall radiatorlar isitish moslamalari sifatida ishlatiladi. Isitish tizimining quvurlari polipropilen quvurlardan o’rnatiladi. Shamollatish tizimi tabiiy va mexanik qo’zg’atuvchili qilib qabul qilinadi. Tashkillashtirilmagan havo oqimi derazalar orqali.

4.4. Yong’in signalizatsiyasi.

Binolarda yong’in signalizatsiyasi va yong’in daraklagichlari koz’da tutilgan.

Hududning ichki va tashqi muhandislik tarmoqlari loyihalari, alohida ishchi loyiha asosida amalga oshiriladi va bu ishchi loyiha doirasida ekspertiza tomonidan ko’rib chiqilmadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Buyurtmachi “NB TEXNOLOGIES” MChJ tomonidan kelishilgan;
- Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Arxitektura va shaharsozlik kengashining 2023-yil 23-iyundagi 74184 – son xulosasi;

- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 2024-yil 2-fevraldagi 01-02/14-1m – sonli xulosasi;

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **59 322 749 634** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

4 748 549 596 so'mga kamaytirilib, **54 574 200 038** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **47 663 375 640** so'm

Asbob-uskunalar: **1 063 588 680** so'm

QQS: **5 847 235 718** so'm

6.1. Ishchi loyiha buyurtmachi tomonidan ekspertizaga sharhlar, takliflar va e’tirozlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertizadan o’tkazish jarayonida mutaxassislar tomonidan berilgan lokal sharhlar va takliflar asosida loyihaga quyidagi o’zgartirish, qo’shimchalar va tuzatishlar kiritilshi lozim:

*- Ishchi loyihasining Bosh reja bo’limida SHNQ 2.07.01-03*ning 29-30 bandlari va 5-jadvali, SHNQ 2.07.01-03*ning 21.1-bandi 17-18-ilovalari, SHNQ 2.07.01-03*ning 21.4-bandi, SHNQ 2.07.01-03*ning 183-185 bandilari 44-jadvali hamda 19-ilovalari, shuningdek SHNQ 2.07.01-03*ning 1-ilovasida nazarda tutilgan majburiy talablar ushbu ilovaning 15*-bandida ko’rsatilgan oraliq masofalarga amal qilinishi talab etiladi;*

- SHNQ 2.04.09-2007ning 12.48-bandiga binoan jihozlar maydoni kamida 15 m2 bo’lgan himoyalangan xonaga joylashtirilishi kerak yoki 4.15-bandiga muvofiq davlat yong’in nazorati organining xulosasi taqdim etishi lozim;

- QMQ 2.03.10-95 qo’llanmasining 1.13-bandi muvofiq tom yog’och konstruksiyalarini yong’indan himoya qilish choralari ko’rsatilsin;*

- SHNQ 2.01.02-04ning 5.28-band talablariga muvofiq, evakuatsiya yo’llarining balandligi 45 sm dan kam bo’lgan farqlarga, ko’tarilishlarga va tushishlarga, ega bo’lmasligi kerak.

6.3. Qiymat iqtisod qilinishiga, elementlar resurs me’yorlari standartlarini, mashina va mexanizmlarni ishlatish xarajatlarini, asosiy qurilish materiallari narxilarni, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va boshqalarni aniqlashtirish orqali erishildi.

6.4. Buyurtmachi hududning tashqi muhandislik tarmoqlari loyihalari, alohida ishchi loyiha asosida amalga oshirilishini va ijobiy ekspertiza xulosasi olinishini ta’minlashi lozim.

6.5. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan, qurilish tugagandan so‘ng, haqiqatda bajarilgan ishlar va nazorat o‘lchovlari natijalari asosida aniqlanadi.

6.6. O’zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qaroriga binoan, ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi xamda loyiha tashkiloti javobgardir.

Loyihachi tashkilot Buyurtmachiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan taklif va e’tirozlar yuzasidan qabul qilingan ko‘rsatmalar asosida loyiha-smeta hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritib tasdiqlangan xolda taqdim etishi kerak. Loyihachi tashkilot o’z tomonidan berilgan javoblar uchun mas’ul va javobgardirlar. Ushbu talab bajarilmagan taqdirda, loyiha-smeta hujjatlari, buyurtmachiga, to’liq tuzatishlarsiz taqdim qilinsa, ushbu yig’ma ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.7. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **“Toshkent shahar, M.Ulug’bek tumani, Gulbadanbegim ko’chasida joylashgan Akademiya professor-o’qituvchilari va xodimlari uchun “Ko’p xonadonli turar-joy binosi” sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruksiya qilish”** obyektining ishchi loyihasi kelgusida ko’rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Rasulov Eldor G‘aniyevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Gulyamov Nadjimitdin Sharafutdinovich, Yuldashev Maxmudjon Baxodirovich, Tulteyev Kenes Tovasovich, Mamadaliyev Boxodir Xakimjanovich, Abdullayev Shavkatjon Komiljon O‘g‘li, O‘ktamov Azamat Tugalboy O‘g‘li, Abdumutaliyev Elyorjon Anvarjon O‘g‘li, Kasimov Sherzod Turgunbayevich, Rasulov Eldor G‘aniyevich, Vaxobov Ma’ruf Mislimbekovich